

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduveiyev</b>	
Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati .....	6
<b>K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov</b>	
Landshaftlar vertikal tabaqlanishini matematik modellashtirish.....	15
<b>Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov</b>	
Ekoturizim resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida) .....	22
<b>T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbanov, K.O.Daljanov</b>	
Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari .....	30
<b>O.T.Mirzamahmudov</b>	
Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari .....	36
<b>O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva</b>	
Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri .....	41
<b>G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Xavfli meteorologik hodisalarining takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
<b>Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov</b>	
Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish .....	54
<b>R.Y.Xoliqov</b>	
Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'ttasidagi geokimyoiy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
<b>K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov</b>	
Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
<b>Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov</b>	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash .....	68
<b>D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov</b>	
Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari .....	81
<b>K.M.Xakimov</b>	
Antroponomik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida .....	87
<b>Y.B.Raxmatov</b>	
Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari .....	93
<b>R.T.Pirnazarov</b>	
Shohimardonsov havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari .....	96
<b>P.R.Qurbanov</b>	
Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlari.....	103
<b>H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva</b>	
Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi .....	113
<b>Z.X.Madaminov</b>	
Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish .....	118
<b>E.G'.Mahkamov</b>	
Farg'ona vodiyisida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'naliishlari.....	122
<b>Z.A.Temirov</b>	
Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'ttasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
<b>M.M.Avezov, A.M.Elmurotova</b>	
Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiyl tabiiy geografik tavsif .....	135
<b>M.R.Usmanov</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

**LANDSHAFTLARNING ANTROPOGEN MODIFIKATSIYALANISHI VA ULARNING  
TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI**

**АНТРОПОГЕННАЯ МОДИФИКАЦИЯ ЛАНДШАФТОВ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ  
ВОПРОСЫ ИХ ИССЛЕДОВАНИЯ**

**ANTHROPOGENIC MODIFICATION OF LANDSCAPES AND SCIENTIFIC AND  
THEORETICAL ISSUES OF THEIR RESEARCH**

**Boymirzayev Karimjon Mirzakhmedovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>University of Business and Science professori

**Mirzahmedov Ismoiljon Karimjon o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Namangan davlat universiteti dotsenti, g.f.f.d.

**Annotatsiya**

*Maqolada inson faoliyatini landshaftlar komponentlariga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, landshaftlarni antropogen o'zgarishi hamda modifikatsiyalanishi darajasiga ko'ra tasnif qilish, antropogen omillar ta'sirida landshaftlarning modifikatsiyalanishi natijasida landshaftda yangi sifatlarning paydo bo'lishi masalalariga doir ma'lumotlar yoritilgan.*

**Аннотация**

*В статье освещены научные исследования по влиянию деятельности человека на компоненты ландшафтов, классификация ландшафтов по степени антропогенного изменения и модификации, а также сведения о появлении новых качеств в ландшафте в результате модификации ландшафтов под влияние антропогенных факторов.*

**Abstract**

*The article covers scientific research on the impact of human activity on the components of landscapes, classification of landscapes according to the degree of anthropogenic change and modification, and information on the emergence of new qualities in the landscape as a result of the modification of landscapes under the influence of anthropogenic factors.*

**Kalit so'zlar:** modifikatsiya, antropogen, landshaft, komponent, geografik qobiq, modda va energiya, madaniy landshaft, differensiatsiya.

**Ключевые слова:** модификация, антропогенный, ландшафт, компонент, географическая кора, вещества и энергия, культурный ландшафт, дифференциация.

**Key words:** modification, anthropogenic, landscape, component, geographic crust, matter and energy, cultural landscape, differentiation.

**KIRISH**

Keyingi yillarda insoniyat sivilizatsiyasi va fan-texnika taraqqiyoti natijasida Yer sharida inson faoliyati yuzaga keltirgan landshaft komplekslarining kengayib borishi yuqori darajada tezlashdi. Shahar, qishloq seliteb landshaftlarining ko'payishi, qishloq xo'jalik yerlarining keskin darajada ortib borishi, transport kommunikatsiyalarini barpo etilishi kabilar oqibatida tabiiy landshaft o'rnidagi inson qo'li, aql-zakovoti bilan yaratilgan landshaftshunoslikning vujudga kelishiga va uning areallarini tezlik bilan rivojlanishiga olib keldi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR**

Inson faoliyatining tabiatga ta'siri to'g'risidagi fikrlar o'tgan asrning o'talaridan boshlab ko'plab olim-mutaxassislarining, jumladan A.I.Voyeykov 1946, V.P.Semyonov-Tyanshanskiy, 1942; M.A.Ivetkov, 1957; F.V.Kotlov, 1962; M.I.Lvovich, 1963; A.V.Sidorenko, 1967; E.A.Novikov, 1967 va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. A.I.Voyeykov o'zining yirik asarlaridan biri "Insonning tabiatga ta'siri" kitobida tabiat va inson o'rtafigi munosabatlarni umumlashtirdi. Inson faoliyati natijasida jarlanish va karst jarayonlarining keng faollashuvi, sel hodisalarining rivojlanishi, o'rmon maydonlarining qisqarishi, ko'chib yuruvchi qum maydonlarining ko'payishi va boshqalar to'g'risida ko'plab aniq misollar asosida fikrlar bildirdi.

Keyinchalik tabiatga insonning ta'sirini alohida mintaqalar bo'yicha tabiat komponentlarini o'rganishga e'tibor kuchaydi Bular orasida E.A.Novikovning 1976-yilda nashr etilgan "Inson va litosfera" kitobi alohida diqqatga sazovor bo'lib, unda inson faoliyatini sezilarli darajada geologik omil sifatida qaralgan. Bu yangi fikr emas edi albatta, chunki insoniyatning qadratli geologik kuchga

aylanib borayotganligi V.I.Vernadskiyning ham bir qator ishlarida o'z aksini topgan edi [8; 261-262 b.].

### MUHOKAMA

Inson faoliyatini tabiatning boshqa komponentlariga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ham bu ta'sirning borgan sari kuchayib borayotganligini yaqqol ko'rsatadi. Ayniqsa bu antropogen ta'sir o'tgan asr davomida kuzatilgan va hozirda ham davom etayotgan iqlim isishida keskin bilinmoqda Iqlim isishi va u keltirib chiqaradigan muammolarga e'tibor shu darajada kuchaydiki, bunga hatto yirik davlatlarning rahbarlarining aralashishi geosiyosatning asosiy muammosiga aylanib borayotganligini bildiradi [7; 120-133 b.]..

Inson faoliyatining tabiat komponentlariga ta'siri oxir oqibat landshaftdagi o'zgarishlarga olib kelishi bahs tug'dirmaydigan bir holdir. Ammo tabiat komponentlarining landshaft o'zgarishlaridagi roli to'g'risida olimlar o'rtasida yakdillik yo'q. Misol uchun, N.A.Solnsev (1960) landshaftni o'zgargan deb hisoblash uchun uning geologo-geomorfologik asosi o'zgargan bo'lishi kerak, deydi [6; 218-239 b., 7; 258-269 b.]. V.I.Prokayev fikricha ham faqat geologik-geomorfologik negiz inson tomonidan o'zgartirilgan geokomplekslarnigina antropogen geokomplekslar deb hisoblash mumkin. V.B.Sochava esa harorat, namlik va biotadagi o'zgarishlar landshaft o'zgarishining asosiy ko'rsatkichlari deb hisoblaydi .

XX asrning ikkinchi yarmida inson faoliyatining tabiatga ta'siri kuchayishi va landshaftlarning katta maydonlarda o'zgartirilishi, landshaftlarning antropogen modifikatsiyalashuviga sabab bo'la boshladi. Tabiiy muhitning holati geografik zonallik, geologik-geomorfologik jarayonlar va inson faoliyati tufayli tobora kuchayib borayotgan o'zgarishlar bilan belgilana boshlandi. Shu sababli hozirgi landshaftlar ma'lum darajada o'zgartirilgan, antropogen modifikatsiyalangan tabiiy landshaftlar bilan bo'lgan hududiy birikmadan iborat. Umuman olganda, Yer sharida o'zgartirilmagan tabiiy landshaftlar deyarli saqlanib qolmagan, chunki geografik qobiqdagi modda va energiyaning almashinishi hamda uning uzlusiz aylanma harakati tufayli inson faoliyatining ta'siri nafaqat Yevropa va Osiyoda, balki Antarktida hamda Arktika, shuningdek, baland tog' mintaqalarining landshaft komponentlarida ham namoyon bo'lmoxda.

Antropogen landshaftlarning tabiiy sharoiti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, ular qaysi geografik zona yoki hududida joylashgan bo'lsa, shu zonaning tabiiy sharoiti bilan bog'liq holda rivojlanadi va tabiiy qonuniyatlar asosida taraqqiy etadi. Ular o'zining xo'jalikda foydalanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: madaniy va madaniy bo'lmagan landshaftlar (Milkov, 1973).

Uzoq yillar davomida inson faoliyati tufayli o'zgartirilgan landshaftlar "madaniy landshaft" deb ataldi. Hozirgi paytda ham ko'pgina mamlakatlarda inson faoliyati tufayli vujudga kelgan landshaftlar madaniy landshaftlar deb ataladi. "Madaniy landshaft" konsepsiyasining asoschisi K.Bauerning fikricha, inson o'zining yashaydigan hududi doirasida bu yerlarni madaniy landshaftga aylantiradi. Bu sistemada madaniyat faol agent, tabiiy muhit vosita, madaniy muhit natija bo'lib xizmat qiladi [5; 202-216 b.].

Insonning landshaft va uni tashkil etuvchi komponentlarini o'rganish masalasi geograflar uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelmoqda. Bunga V.V.Dokuchayev, A.I.Voyeykov, V.V.Alyoxin va boshqalarni ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Ularning olib borgan ishlari natijasida inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgargan landshaftlarni "madaniy landshaft" deb atash rasm bo'la boshlagan. "Madaniy landshaft" atamasi F.Zigrayning fikricha N.Krebs tomonidan 1923-yilda fanga kiritilgan (Abdullayev, 1974; Zokirov, 1998). Landshaft sferasidagi geotizimlarning har ikkala tipining munosabatlariiga bog'liq holda madaniy landshaftning quyidagi tiplarini ajratish mumkin: madaniylashtirilgan, buzilgan va devastrangan landshaft (Neyef, 1974).

Bunday turli fikrlarni bo'lishi, shuni ko'rsatadiki landshaftlar ko'p va turli omillar ta'sirida yuzaga keladi va rivojlanadi. Shuning uchun olimlar (L.S.Berg, 1944, N.A. Gvozdetskiy, 1977, F.N.Milov, 1978, L.I.Kurakova, 1976, YE.V.Milanova va A.M. Ryabchikov, 1979 va boshqalar) fikricha, landshaftning umumiyl xususiyatlaridan biri undagi bironta komponentning o'zgarishi yoki o'zgartirilishi boshqa komponentlarning va umuman landshaftning butunlay o'zgarishiga tizimdagi o'zaro ta'sir muvozanati buzilib, yangi landshaft turi hosil bo'lishiga olib keladi. Shu asosda tabiiy landshaftning antropogen landshaftga aylanishida antropogen omil negiz bo'lib hisoblanadi.

Antropogen landshaft tushunchasining yuzaga kelishida V.V.Dokuchayev, A.I.Voyeykov, V.I.Vernadskiyarning inson faoliyatining tabiat komponentlariga ta'siri to'g'risidagi fikrlari, L.S.Berg (1913, 1937), A.D.Gojev (1930), L.G.Ramenekiy (1935, 1938) va boshqalarning inson va tabiat o'rtaqidagi aloqalar, ularning mohiyatiga bag'ishlangan asarlari katta rol o'yndaydi [3; 5-86 b.].

Antropogen landshaftni tabiat kompleksi sifatida 1930 yilda A.D.Gojev (1930) tomonidan ajratildi. L.G.Ramenskiy (1938) landshaftning shakllanishida antropogen omilning roliga katta e'tibor berib, "landshaftshunoslarning tadqiqot obyekti faqatgina tabiiy landshaftlar emas, balki inson tomonidan yaratilgan madaniy landshaftlar hamdir" degan muhim g'oyani olg'a surdi.

Antropogen landshaftshunoslikning yuzaga kelishida Y.G.Saushkinning xizmatlari ham katta. U o'zining "Madaniy landshaft" maqolasida (1946) "madaniy landshaft" deb inson faoliyati natijasida tabiiy muhit elementlari orasidagi o'zaro aloqa o'zgargan har qanday tabiiy landshaftni aytish kerak deb uqtiradi. Bu o'zgarishlar nisbatan kichik yoki juda kuchli bo'lishi mumkin, lekin geografik landshaft tabiat elementlarining o'zaro aloqasi va soni nisbatlari buzilishi bilan landshaft strukturasi va u bilan birga uning o'zi ham o'zgaradi. Keyinchalik Y.G.Saushkin (1951) "madaniy landshaft" deb shunga aytildiki, unda inson mehnatining to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi tabiat hodisalari va predmetlarning o'zaro ta'siri nisbatini shunday o'zgartirganki, landshaft o'zining eski holatiga nisbatan yangi, butunlay boshqa sifat xususiyatlarga ega bo'lgan " deb ta'rif beradi.

F.N.Milkov bo'yicha "antropogen landshaft deb inson tomonidan yaratilgan yangi landshaftlarni ham, inson ta'sirida har qanday komponent, shu jumladan o'simlik va hayvonot dunyosi ham, chuqur o'zgargan (qayta shakllangan) tabiiy komplekslarni ham hisoblash kerak". F.N.Milkov antropogen landshaftlarni madaniy va faol landshaftlarga bo'lganda ularga quyidagicha ta'rif beradi: madaniy landshaft - inson tomonidan tabiiy landshaftni o'zining ho'jalik maqsadlarida zarur yo'nalishda o'zgartirilgan boshqaruv tizimi ko'rinishidagi antropogen landshaft turi. Unga qishloq xo'jaligi maydonlari, sug'oriladigan vohalar, himoyalangan o'rmon mintaqalari, irrigatsiya tizimlari, tog'larning terassalangan yonbag'irlari va boshqalar misoldir; faol landshaft-tabiiy landshaftdan nooqilona foydalanish natijasida yuzaga kelgan antropogen landshaft turi. Bu turga ikkilamchi sho'rangan va botqoqlashgan yerlar, tog'oldi tekisliklarning su'niy sug'orish inshootlari natijasida hosil bo'lgan jarlar bilan parchalanganligi, cho'llarda va voha atroflaridagi qumlarning ko'chish maydonlari misol bo'la oladi.

A.G.I Sachenkonin (1991) fikricha, faol landshaftlar insoniyat nooqilona faoliyati natijasi bo'lib, ularni madaniy landshaftlarga aylantirish lozimdir. Bu madaniy va faol landshaftlarga misollar asosan qishloq xo'jaligidan olindi. Qishloq xo'jaligi landshaftlari ko'p manbalarda agrolandshaftlar yoki agrolandshaft tizimlari deb ataladi va bu bizning o'lkamizga xosdir. Ularning asosiy qismi sug'orma dexqonchilik bilan bog'liq bo'lib L.N.Babushkin va N.A.Kogay (1964) sug'oriladigan yerlar landshaftlari, N.A.Gvozdetskiy (1977) voha landshaftlari, F.N.Chalidze (1980) esa irrigatsiya landshaftlari deb ataganlar.

Antropogen landshaftlar va ularning turli ko'rinishdagi tiplarini o'rganishda A.A. Abdulqosimov, Nigmatov A.N., Raxmatullayev A., Boymirzayev K.M. va boshqa bir qator olimlarning xizmatlari katta. A.Abdulqosimov (1983) O'rta Osiyoda antropogen komplekslar orasida voha landshaftlari alohida o'rin egallashini, keyingi vaqlarda ularga tadqiqotchilarining e'tibori kuchayib borayotganligini ta'kidlab o'tish bilan bir qatorda antropogen landshaftga quyidagicha ta'rif beradi:

"Antropogen landshaft yer landshaft sferasining hosil etilgan insonning xo'jalik faoliyati natijasida shakllangan, yuzaga kelishi bo'yicha tabiiy-lokal komplekslar genetik qatorining biri bo'lgan va tabiat qonunlari bo'yicha rivojlanadigan, kuchli o'zgartirilgan va qayta hosil etilgan qismidir". Antropogen lanshaftga sinonimi sifatida "madaniy landshaft", "o'zgartirilgan landshaft", "texnogen landshaft", "antropogen geosistema", "bunyodkorlik geosistemalari" kabi atamalar ham ishlataladi [1; 20-21 b.]. A.Abdulqosimov (1966, 1983, 2016) hozirgi tabiat komplekslarining shakllanishida antropogen omilning rolini asoslab, O'rta Osiyo antropogen landshaftlarining klassifikatsiyasini yaratdi. Antropogen landshaftlar hamma geografik zonalarda, tog'li o'lkalarda uchraydi va ular turli xil zonal sharoitlarda vujudga keladi, har bir zona o'zining antropogen landshaft spektriga ega.

Antropogen landshaftshunoslikda hanuzgacha yechimini topmagan munozarali masalalar juda ko'p. Misol uchun landshaft inson ta'sirida o'zgargan darajasi qanday, tabiiy landshaft qachon va qanday mezon asosida antropogen landshaftga aylanadi, tabiiy landshaftlarni antropogen landshaftlarga aylanishi uchun komponentlarning o'zgarish darajadasi qay darajada bo'lishi kerak, kabi masalalarni sanab o'tish mumkin.

Bir qator olimlar landshaftlarni tabiiy-antropogen va madaniy landshaftlarga ajratishadi. Insonning bir marta ta'sir etishi, ya'ni yaratuvchiligi natijasida hosil bo'lgan geotizimlarni tabiiy-antropogen landshaftlar deb ataymiz, ular yana o'z taraqqiyotini tabiat qonunlari asosida olib boradigan geotizimlar bo'lib hisoblanadi va ular vaqt o'tgan sari ilgarigi holatiga yana qaytishi

mumkin. Ammo, keyingi bo'ladigan antropogen ta'sirlar bu jarayonni susaytirish yoki butunlay to'xtatishi ham mumkin. Inson tomonidan o'zining amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun ataylab, ongli ravishda barpo qilingan landshaftlar esa madaniy landshaftlar deb ataladi (Zabelin, 1978; Zokirov, 1998).

Antropogen omillar ta'sirida landshaftlarning modifikatsiyalanishi natijasida landshaftda yangi sifatlar paydo bo'ladi. Bunday sifatlar antropogen omillar ta'sirida doimo qo'llab-quvvatlanib turilishi natijasida vujudga kelgan antropogen modifikatsiyalangan landshaftlar bo'lib, ular boshqa tabiiy landshaftlarga nisbatan juda tez shakllanadi va rivojlanadi. Lekin, antropogen landshaft tub tabiiy landshaft kabi o'zining vujudga kelishiga ko'ra bir xilligini ham zonal, ham azonal jihatdan saqlab qoladi va qaysi zona, yoki qaysi balandlik mintaqasida vujudga kelgan bo'lsa, shu zonaning differensiatsiyalanish qonuniyatlariga bo'y sunadi [2; 234-246 b.].

Landshaftlar modifikatsiyalanishiga ko'ra turli-tuman bo'lgan antropogen landshaft turlarini tashkil etadi. Agrolandshaft ana shunday modifikatsiyalangan antropogen landshaftlarning bir turi bo'lib hisoblanadi. Agrolandshaft tadqiqotlarining paydo bo'lishi tabiiy va qishloq xo'jalik geosistemalarini o'rganish zaruratidan kelib chiqadi.

### XULOSA

Uzoq vaqt davomida "tabiiy tabiat" tushunchasi klassik landshaftshunoslik fanida ustunlik qildi, iloji boricha muqarrar antropogen ta'sirlardan tozalandi va tabiiy-hududiy komplekslarning antropogen modifikatsiyalanish konsepsiysi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ko'plab klassik tadqiqotlarda iloji boricha tabiiy hududiy komplekslardagi antropogen o'zgarishlar mavjudligi tan olindi. Bu shuni anglatadiki, qishloq xo'jaligidagi antropogen modifikatsiyalangan tabiiy komplekslar, avvalo, tabiiy o'zgarish bilan genetik bog'liq bo'lgan modifikatsiya sifatida ko'rib chiqilgan, radikal o'zgarishlarning ehtimoli rad etilgan, antropogen omil boshqa landshaftning kelib chiqish genezisi bilan taqqoslanmaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулкосимов А.А., Абдулкосимов А., Абдулкосимов И. Антропогенные ландшафты Средней Азии. Т.: "Иқтисод – молия". 2016. – 262 с.
2. Абдулкосимов А.А., Абдураҳманова Ю.Х., Даевронов К.Қ. Зарафшон ботиги воҳа ландшафтлари ва геоэкологияси.- Т.: "IQTISOD - MOLIYA", 2017. – 304 бет.
3. Забелин И.М Физическая география в современном естествознании. -М.: Наука, 1978.
4. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшунослик (ўкув кўлланма). -Т.: Университет, 1998. - 60 б.
5. Исаченко А.Г. Избранные труды (к 90-летию со дня рождения). -СПб.: Изд-во «ВВМ», 2012. - 486 с.
6. Мильков Ф.Н. Человек и ландшафты. Очерки антропогенного ландшафтования. -М.: Мысль, 1973. - 224 с.
7. Мильков Ф.Н. Физическая география: учение о ландшафте и географической зональности. –Воронеж, 1986. -328
8. Нигматов А.Н. Табиий география ва геоэкология назарияси. – Тошкент: "Наврӯз", 2018. – 220 б.
9. Рахматуллаев А.Р. Воҳа геосистемаларида экологик вазиятларни оптималлаштиришнинг географик асослари // Докт. дисс. автореф. –Тошкент, 2018. -86 б.
10. Саушкин Ю. Г. Географическая наука в прошлом, настоящем, будущем. -М.: Просвещение. 1980. -271 с.